O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MOLIYANING RIVOJLANISHI ,UNING MOLIYAVIY INKLYUZIYAGA TA'SIRI VA STATISTIK TAHLILI

Shakirova Nigora Axralovna Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
PhD,Dotsent,Iqtisodiy statistika kafedrasi
Tel: +998 (94) 364-00-50
E-mail: shakirova0130@gmail.com
Eshonqulov Dilshodbek Nodirjon o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" fakulteti talabasi
Tel: +998 (93) 839-80-06
E-mail: edilshodbek006@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanish tendensiyalari va uning moliyaviy inklyuziya bilan bog'liqligi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.Tadqiqotda masofaviy bank xizmatlari,raqamli to'lovlar,tolov tashkilotlari faoliyati,QR-online va NFC texnologiyalari hamda raqamli identifikatsiya kabi raqamli moliya vositalarining rivojlanish ko'rsatgichlari o'rganiladi.Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiy statistik ma'lumotlari hamda Jahon bankining Global Findex 2025 ma'lumotlari tashkil etadi.Tahlil jarayonida mutlaq o'zgarish,o'sish sur'ati va taqqoslash usullaridan foydalanildi.Natijalar O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi kengayotganini ko'rsatadi.Shu bilan birga, raqamli moliyaning rivojlanishi moliyaviy inklyuzani avtomatik ravishda ta'minlamasligi, bunda raqamli savodxonlik,infratuzilma,kiberxavfsizlikva xizmatlar qulayligi kabi omillar ham muhimligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar:raqamli moliy,moliyaviy inklyuziya,raqamli to'lovlar,masofaviy bank xizmatlari,QR-online,NFC,raqamli identifikatsiya,to'lov tashkilotlari,statistik tahlil,bank tizimi.

Abstract

This article analyzes the development trends of digital finance in Uzbekistan and its relationship with financial inclusion based on statistical data.The study examines the development indicators of various digital financial instruments,including reote banking services,digital payments,the activities of payment organization,QR Online and NFC technologies,as well as digital identification.The information base of the study consists of official statistical data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and data from the World Bank's Global Findex 2025.The analysis employs methods of absolute change,growth rate analysis,and comparative analysis.The result indicate that the use of digital financial services is expanding in Uzbekistan.At the same time,then development of digital finance does not automatically ensure financial inclusion,as factors such as digital literacy,infrastructure, cybersecurity, and the accessibility and convenience of financial services also play an important role.

Keywords:digital finance,financial inclusion,digital payments,remote banking services,QR Online,NFC,digital identification,payment organizations,statistical analysis,banking system.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi moliya tizimining ishlash mexanizimlariga sezilarli ta'sir ko'rstamoqda.Bank xizmatlarining mobil ilova orqali ko'rsatilishi,QR-kod va NFC texnologiyalarining ommalashishi hamda raqamli identifikatsiya tizimlarining rivojlanishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish usullarini o'zgartirmoqda.Raqamli moliyaning rivojlanishi yaxshilanib kelayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.Chunki raqamli texnologiyalar bank filiallariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi,masofani

qisqartirish,vaqtni tejash va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.Biroq bunday imkoniyatlardan foydalanish uchuninternet infratuzilmasi,raqamli qurilmalar,moliyaviy va raqamli savodxonlik hamda xavfsiz to'lov tizimlarini kuchaytirilishi va mavjud bolishi talab etiladi.O'zbekistonda ham so'ngi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanib kelmoqda.Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlarida masovafiy bank xizmatlari foydalanuvchilari,to'lov tashkilotlari,elektron to'lovlar, QR-online,NFC va raqamli identifikatsiya ko'rsatgichlar muntazam e'lon qilinmoqda.Mazkur maqolamning maqsadi O'zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanish tendensiyalarini statistik jihatdan o'rganish va uning moliyaviy inklyuziya bilan bog'liqligini tahlil qilishdan iborat.Tadqiqotda statistik taqqoslash,dinamik tahlil,mutlaq o'zgarish va o'sish sur'atini hisoblash usullaridan foydaliniladi.

1.Raqamli Moliyaning nazariy asoslari

1.1.N Raqamli moliya tushunchasi va iqtisodiy ahamiyati

Raqamli moliya—moliyaviy xizmatlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari,internet,mobil qurilmalar va raqamli platformalar orqali ko'rsatish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat jamlanmasidir.Unga mobil banking,internet-banking,elektron to'lovlar,elektron hamyonlar,QR-kod orqali to'lovlar NFC to'lovlari,fintech xizmatlari va raqamli identifikatsiya kabi yo'nalishlar kiradi.Raqamli moliyaning asosiy iqtisodiy afzalliklaridan biri moliyaviy xizmatlarni tezkor va masofadan olish imkonini berishidir.An'anaviy bank xizmatlarida mijoz ko'pincha bank filialiga borishi kerak bo'lsa,raqamli moliyada ko'plab operatsiyalar mobil telfon yoki kompyuter orqali amalga oshiriladi.

1.2. Raqamli moliya va mliyaviy inkyuziyaning o'zaro bog'liqligi

Raqamli moliya moliyaviy inklyuziyani kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.Masala, bank filiali mavjud bo'lmagan hududdagi fuqaro mobil ilova orqali hisobvarag'idan foydalanishi mumkin.Biroq raqamli moliyaning

mavjudligi o’z-o’zidan to’liq moliyaviy inklyuziyani anglatmaydi.Internetga ulanish imkoniyati,smartfon mavjudligi,raqamli savodxonlik,xizmatlar qiymati va kibexavfsizlik kabi omillar ham inobatga olinishi kerak.

1.3. Raqamli moliyaning asosiy shakllari quydagilardan iborat:masofaviy bank xizmatlari;elektron to’lovlar;QR-kod orqali to’lovlar;NFC va kontaktsiz to’lovlar;mobil bank ilovalari;elektron hamyonlar;raqamli identifikatsiya;fintech xizmatlari.

1.4. Raqamli moliyani statistik baholash

Raqamli moliya rivojlanishini baholashda foydalanuvchilar soni,tranzaksiyalar hajmi,raqamli identifikatsiyadan o’tkan mijozlar soni va o’sish sur’atlari kabi korsatgichlardan foydalanish mumkin.

O’sish sur’ati:

T=Y(joriy) / Y(bazaviy)x100%

Masalan,ko’rsatgich 40 milliondan 50 milliongacha oshsa;

(50/40)x100%=125%

Demak,o’sish sur’ati 125% ,yani 25% ga o’sish bo’ladi

2.O’zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanish tendensiyalari

2.1. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish

O’zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish raqamli moliyaning muhim yo’nalishlaridan biridir.Markaziy bank ma’lumotlariga ko’ra, 2025-yil 1-yanvar holatida ayrim yirik banklarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni quydagicha bo’lgan:Milliy bankda-2 511 760 nafar, O’zsanoatqurilish bankda-6 310 942 nafar,Agrobankda-5 942 125 nafar va Ipoteka bankda-3 861 208 nafar.2025-yil 1- iyul holatida esa mazkur bankning ayrimlarida ko’rsatgichlar quydagicha qayd etilgan.Milliy bank-3 098 898, O’zsanoatqurilish bank-5 630 543,Agrobank-3 921 179 va Ipoteka bank-4 607 014 nafar foyalanuvchiga ega.Bu raqamlar masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko’lami katta ekanligini ko’rsatadi.Shu bilan birga,banklar kesimidagi raqamlarni

qo’shib,ular noyob jismoniy shaxslar soni sifatida talqin qilish mumkin emas,chunki bir shaxs bir nechta bank xizmatidan foydalanishi mumkin.

2.2. QR-online texnologiyasining rivojlanishi

2024-yilda tadbirkorlik subyektlariga qariyb 108 mingta QR-online kodi taqdim etilgan.QR-online orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning hajmi 441.8 milliard so’mni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan 1.3 barobar oshgan.QR texnologiyasi tadbirkorlar va iste’molchilar uchun to’lov jarayoni soddalashtirishga xizmat qiladi.

2.3. NFC texnologiyasining rivojlanishi

2024-yilda NFC texnologiyasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 41.4 trillion so’mni tashkil etgan.Ushbu ko’rsatgich 2023-yilga nisbatan 1.1 barobar oshgan.Shuningdek,2025-yil 1-yanvar holatida Tap-to-phone xizmatidan foydalanuvchi tashkilotlar soni qariyb 3.2 mingta bo’lgan.

2.4. Jahon banki Global Findex ma’lumotlari Jahon bankining Global Findex 2025 ma’lumotlar ba’zasi 2024-yilda 141 ta iqtisodiyotda qariyb 148 ming nafar katta yoshli respondent ishtirokidagi milliy reprezentativ so’rovlarga asoslangan.Unda moliyaviy xizmatlardan foydalanish,raqamli to’lovlar,mobil telefon va internetdan foydalanish kabi ko’rsatgichlar qamrab olingan. O’zbekiston bo’yicha 2024-yilgi mikrodata ma’lumotlarida mobil telefon yoki kompyuter orqali hisob-kitob to’lovini amalga oshirgan respondentlar ulushi “42,7%”ni tashkil etgan.Bunda 592 ta valid javobdan 253 tasi “ha” javobini bergan.

3.Raqamli Moliyaning inklyuziyaga ta’sirining statistik tahlili

3.1.To’lov tashkilotlari operatsiyalarining o’sishi

2024- yilda to’lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 333 trillion so’mni tashkil etib,2023-yilga nisbatan 1,8 barobar bo’lgan.

3.2.QR-online operatsiyalarining o’zgarishi

2024-yilda QR-online operatsiyalari 441,8 milliard so’m bo’lgan.BU qiymat esa 2023- yildagi qiymatdan 1,3 barobar ko’proq.Demak 2023- yildagi qiymat

441,8/1.3=339,8 milliard so'mni tashkil qiladi.Bu esa mutlaq qiymat **441,8-339,8=102** milliard so'm degani.Shunday qilib,QR-online operatsiyalarining taxminiy mutlaq o'zgarishi 102 milliard so'mni tashkil etgan.

3.3.NFCoperatsiyalarining o'zgarishi

2024-yilda NFC operatsiyalari 41,4 trillion so'mni tashkil etgan.BU esa 2023-yildagi qiyamtdan 1,1 barabor ortiq ekanligini ko'rsatgan.

3.4.Moliyaviy inklyuziya ko'rsatgichi

Global Findex 2025 O'zbekiston mikrodata ma'lumotlarida karta yoki pul yuborish/qabul qilish bilan bog'liq indikator bo'yicha 592 ta valid javob mavjud.Ularning 353 tasi "ha",ya'ni **59,6%,** 237 tasi "yo'q",ya'ni **40%,** 2 tasi esa "bilmayman",ya'ni **0,3%** javobini bergan.Ushbu ko'rsatgich O'zbekiston aholisining to'liq statistikasi sifatida emas,Global Findex so'rovi bo'yicha indikator sifatida talqin qilish kerak.

4.O'zbekistonda Raqamli moliyaning rivojlanishining muammolari va istiqbollari

4.1.Kiberxavfsizlik

Raqamli moliyaviy xizmatlar kengaygani sari kiberxavfsizlik masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Markaziy bankning 2025-yilgi hisobotida 2024-yilda bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik operatsiyalariga qarshi choralar ko'rilgani va 9,5 milliard so'mlik mablag'lar bloklangani qayd etilgan.Shuningdek, markazlashtirilgan anti-fraud xizmatining pilot rejimida ishga tushurilgani ko'rsatadi.Bu holat raqamli moliya rivojlanishida xavfsizlik masalasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

4.2.To'lov infratuzilmasi

Raqamli moliyaning samarali ishlashi to'lov tizimlarining barqarorligi va o'zaro integratsiyasiga bog'liq.Kelgusida turli to'lov tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish,xizmatlarni tezlashtirish va foydalanuvchilar uchun qulaylikni oshirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot davomida O’zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanishi va uning moliyaviy inklyuziya bilan bog’liqligi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.Tahlil natijalariga ko’ra,2025-yil 1- iyul holatida Markaziy bank statistikasi ayrim yirik banklarda millionlab masofaviy bank foydalanuvchilari mavjudligini ko’rsatgan.Jahon bankining Global Findex 2025 ma’lumotlari esa O’zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo’yicha aholining amaliy xatti-harakatlarini baholash imkonini beradi.2024-yilgi so’rovda mobil telfon yoki kompyuter orqali hisob-kitob to’lovlarini amalga oshirgan respondentlar ulushi 42,7%ni tashkil etgan.Shunday qilib,statistik ma’lumotlar O’zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanayotganini ko’rsatadi.Raqamli to’lovlar,masofaviy bank xizmatlari va raqamli identifikatsiya kengayishi aholining moliyaviy bank xizmatlari va raqamli identifikatsiya kengayishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun imkoniyat yaratmoqda.Biroq raqamli moliyaning rivojlanishi avtomatik ravishda to’liq moliyaviy inklyuziyani anglatmaydi.Raqamli savodxonlik,internet infratuzilmasi,kiberxavfsizlik,xizmatlarning narxi va aholining turli guruhlari uchun teng foydalanish imkoniyatlari ham muhim omillardir.Umuman olganda, O’zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanishi mamlakat moliya tizimini modernizatsiya qilish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Fodalanilgan Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2024-yil uchun yillik hisoboti. Toshkent, 2025.

https://cbu.uz/upload/medialibrary/ded/k3lrh194iz4934w1hzgsdw3obmrrdvn0/Godovoy-otchet-2025.pdf

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2025-yil uchun yillik hisoboti

https://www.lex.uz/ru/docs/8289061

. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. cbu.uz

https://cbu.uz/upload/medialibrary/81b/wydwlfrai1rirr072q3hfymk2kpq50fb/2025_yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf

. World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. Washington, DC, 2025.

World Bank. The Global Findex Database 2025https://www.bancomundial.org/es/publication/globalfindex

https://www.lex.uz/docs/-7619324